







**BOBORAHIM MASHRAB LIODIDA OTA-ONA MAVZUSI**

Tajirova Zaxra Mohir qizi  
Buxoro davlat universiteti  
Filologiya fakulteti

**Annatsiya:** Bu soʻzlar dildan chiqqan metrdir, muhabbatdir (jumalardir). Bu (jumalar) Mashrab qoldirgan, men tabii orqali yetkazayotgan ota - onamiz bilan bogʻliq gʻazallarda jamlangan haqiqatlarni jamiki tengdosh va yurtdoshimiz oʻqish-oʻqishlarini xohladim. Ushbu maqolada Mashrabning "Ey koʻzinning shami-yu ham nuri diydam ravshan..." muxammasi taʼhili yoritilgan.

**Kaliti soʻzlar:** Boborahim Mashrab, muxammas, band, "koʻzinning shami", "nuri diydam ravshan", misra.

Ota-ona goʻyoki yoʻlimiz yorituvchi shmdir, oʻzi yonib tugasa tugaydiki, uchun jar-jahdi bilan kurashishdan aslo toʻtamaydi. Ana shunday fidoyi doʻstlikni esa boshqa hech kimning qiyofasidan topib boʻlmaydi. Boborahim Mashrab ijodida ham ota-onani yuksakka koʻtaruvchi, ularning buyukligi, ulugʻligini taʼrituvchi jumalar jamlangan boy merosi alohida oʻrin tutadi. Boborahim Mashrab oʻzbek muttosh sheʼriyatiga yangi rui va oʻziga xos ijodiy nafas olib kirgan ulkan sanʼatkor hisoblanadi. Mashrab sheʼriyati oʻzining samimiyligi, samoviyligi va hayotiyli bilan ajralib turadi. Shoirmning ijodida ilohiy ishq, odob-axloq, talim-tarbiya, ota-ona va shu kabi nuri mavzularda yaratilgan qimmatbaho yuksak badiiy sanʼat bilan gʻazal - u muxammaslari alohida eʼtiborga sazovordir. Xususan, ota-ona haqidagi yoshlar va barcha insonlar uchun farzandning ota-ona oldidagi burchlarini anglashda alohida ibrat maktabini oʻyaydi.

Endi gapimizning ibtosi sifatida fikrimizni tasdiqlash uchun Mashrabning "Ey koʻzinning shami-yu ham nuri diydam ravshan..." [2] muxammasining taʼhili eʼtibor qaratamiz. Muxammas matni bunday:

Mashrab tomonidan yozilgan ushbu muxammas biz yoshlarga, balki jamiki insonlarga nasihat tarzida yozilgan pandnoma desak, adashmagan boʻlamiz. Muxammas oʻlingan qiroli boʻlmish otamizni rozi qilishga undaydi, qachon va qaysi holat, harakalarimiz orqali otamizni norozi qilib qoʻyishimiz va Alloh tomonidan tavbasi qabul qilinmaydigan bandaga aylantirishimizning sabablarini, uni kelibib eʼtiborchi onillar yoritilgan. Shu oʻrinda xalqimizning "Ota rozi-Xudo rozi" degan hikmatini eslab oʻtsak. Ota-onasini norozi qolgan ham koʻrib guvoh boʻlaymiz. Endi birinchi baddan taʼhili boshlash orqali fikrlarimizni isbotlashga kirishamiz:

*Ey koʻzinning shami-yu ham nuri diydam ravshani,  
Odamiy iymongʻa yetmay hech vaqt boʻlmas sani,  
Mardumozori qilib boʻlma Xudoning dushmani,  
Otmonga yetsa boshing qilmogʻi nommoni,  
To Otang rozi emas, tavbang qabul boʻlmas sani.*

Avvalo, muxammasning 1-misrasi barchaning eʼtiborini oʻziga qaratishi tabiiy. Yaʼni Mashrabning misrada "koʻzinning shami", "nuri diydam ravshani" degan jumalardan foydalanishining maqsadi nima? Har bir ota-ona yoshi oʻtgan sayin bolasini koʻzinning shami, yaʼni qari qolganida koʻzlariga nur boʻladigan, kuchdan qolganida belimning quvvati, madorim boʻladigan, unrimning davomchisi, mendan keyin chirogʻimni yoquvchi jigargoʻsham, deya eʼkalyadi. Endi, Mashrab bu eʼkashini kimga qaratib aytayapti degan savol tugʻiladi, albatta, oʻz farzandlariga, biz avlodlariga, katta-yu kichik barchaga, joldan behramand boʻlayotgan kitobxonga. U barchani oʻz farzandidek koʻradi va bu eʼkashlar, chaqirgʻillar mujassamlangan birinchi misra hammani bekiyor oʻziga jalb qiladi, muxammasning oʻqishi boʻlishini taʼminlaydi, Mashrabning diqqati qaratilayotgan shaxs anyan oʻqiyotgan kishining oʻzi ekanligi sezilib turadi. Birinchi badda shunday uqitirilayotgan taʼkidlar mavjud:

159

*Chun Xudo bandam demas, har kimki dil ozardur,  
Kim Padarozordur, andin Xudo bezardur,  
To Otang rozi emas, tavbang qabul boʻlmas sani.*

Ushbu badda taʼkidlab oʻtilgan fikrlarga nazar tashlasak:

Kim badkirdor (yaʼni yomon xulqli, yomon xatti-harakat qiluvchi kimsa) boʻlsa, unga Alloh

oʻz yaxshiliklarini, rahmatini yogʻdirmaydi. Uning yomon xulqi, nopokligi tufayli goʻr ham uni qabul qilmaydi, toʻgʻri pokmi, nopokmi, bir kunmas bir kun inson bu dunyodan oʻtganida, albatta, qabrga kiradi, lekin "qabr azobi" degan tushuncha bor, bu kabi hammaga ziyoni tegadigan, ota-onasini xor qilgan kimsalar uchun "qabr azobi" tushunchasi "goʻr ani qabul qilmas" degan fikr orqali izohlanayapti. Xudo bandam demasligi, Xudo bandasidan bezorligi bu inson uchun eng ayanhik jazodir, bunday kimsalar Doʻzaxiydir, ammo ular kimlar? Ular birovgʻa ozor yetkazuvchi, birov u yoqda tursin, oʻz otasining, padarining diliga ziyon yetkazuvchi noqobil farzandlardir. Va eng katta gunohi azimlardan biri ham birovning dilini ogʻritish, Alloh bunday bandalarni aslo suymas. Mashrab inson boshiga tushishi mumkin boʻladigan bu kabi ofatlarning oldini olish uchun yana bir bor eslatadi: "to otang rozi emas, tavbang qabul boʻlmas sani...". Bu fikrlar otasini rozi qilayotgan yoki ota-onasini norozi qilayotgan barcha farzandlarga birdak taʼsir qiladi. Otasining roziligini olayotgan farzand yana ham padariga yaxshiliklar qilishga, bu qilayotganlari kamligini anglashga, otasini norozi qilayotganlar esa qanday gunohi azimga qolayotganlarini tushungan holda bu yoʻldan qaytishga harakat qiladilar.

*Necha yil tun-u kun agan tinmay oʻqsang ilmi qol,  
Hech vaqt iymoni pokingga topolmaysan kamol,  
Har zamini shoʻrazoʻdir, koʻkarmadur nihol,  
Arzanga arzimaz yoʻl ustida singan sopol*

*To Otang rozi emas, tavbang qabul boʻlmas sani.*

Bu baddan otani rozi qilmaslik qay holatga olib kelishi, bunday farzand nimalarga qiyoslanganini anglash mumkin: Yaʼni necha yil tinmay diniy, dunyoviy, falsafiy ilmlarni oʻqisang ham, hech qachon iymoningni kamol topdirmaysan, iymon choʻqqisiga yetga olmayan, Alloh senga oʻz rahmatini yogʻdirmaydi, Chunki sen otangni rozi qilmagan holdingda oʻzingni, qalbingni shoʻrazor-u, yoʻl ustida tashlandiq, keraksiz holda yotgan singan sopol deyaver. Shoʻrazor yerni qoplaganda unda nihol koʻkarmaydi, koʻkarsa ham u ulkan daraxt boʻla olmaydi. Sopolchi? U singan holda hech kimga kerak boʻlmaydi, unga suv solganda, suvni tutib turlmaydi. Yoʻl ustida yotgan bu foydasiz narsa arzonga, hattoki sotishga ham arzimaydi. Ota-onasining roziligini olmagan, tavbasi qabul boʻlmaydigan farzand qancha ilm olsa ham, iymonini yuksaltirish uchun tinmay harakat qilsa ham, bunday imdan na oʻziga, na birovgʻa naf tegadi. Barcha xayr-baraka Alloh va ota-ona roziligidan keladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. Jaloliddin Yusufiy, Mashrab. Devon. "Sharq" nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2019, 8-48 b.
2. Jaloliddin Yusufiy, Mashrab. Devon. "Sharq" nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2019, 281-282 b.
3. <https://islom.uz/maqola/5482> sayti.
4. Jaloliddin Yusufiy, Mashrab. Devon. "Sharq" nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2019, -97 b.
5. Jaloliddin Yusufiy, Mashrab. Devon. "Sharq" nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2019, -323 b.
6. Jaloliddin Yusufiy, Mashrab. Devon. "Sharq" nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2019, -157 b.
7. <https://iiuu.uz/oz/news/2078> sayti.

ZAMONAVIY TALIM MUHITIDA BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA O'YIN TEKNOLOGIYALARINI QO'LLASH ORQALI MADANIYATLAR ARQ MUNOSABATLARINI UYG'UNLASHTIRISH.....	114
<i>Alimovna Shuhriddinova Anor qizi</i> MAHMUDXO'JA BEHRUDIYNING PEDAGOGIK G'YOALARI ASOSIDA TALABA YOSHILARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIVLASH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA.....	120
<i>Toshova Dilrora Iskandarovna</i> BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA OTA-ONALARNING O'RNI.....	124
<i>Avazxonova Ulmiritila</i> O'SMIR OZGLAR TA'LIM-TARBIVASIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	125
<i>Muzamedovna Sharofjon Muzammadaloyeva</i> MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA OTA-ONALAR BILAN PEDAGOGIK HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH UMUMBASHARIY YONDASHUVLAR VA INNOVATSION AMALIYOTLAR.....	129
<i>Arifova Nargiza Jazangirovna</i> PEDAGOGIK TA'LIM TIZIMIDA UMUMBASHARIY G'OYALAR VA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKIMLARINING O'ZARO ALOQASI.....	131
<i>Alimova Marvada Adila qizi</i> MADANIYAT, ILM VA JAMHIYAT TAPAKKUHETH ИЎЛИДА.....	134
<i>Paxlovna Muzavvabo Turmuvonovna</i> O'ZBEK TILI DARSLARIDA HARF NOMLARI VA HARFIY IBORALARNI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	139
<i>Sharipova Marvatiya Boymatovna (PKD)</i> QAHRAMONNING G'AYRITABIY TUG'ILISH MOTIVE: MIF VA EPIK AN'ANA.....	142
<i>Sharipova Maxbaba Baxshilloevna</i> Sevindikona Dilrora Sharvkatovna JADIDCHILIK HARAKATINING VILJUDGA KELISHI HAMDA JADID MARIYATPARVARLARINING TA'LIMIY-AXLOQIY.....	144
<i>Temirova Rahmatilla Ismatilla o'g'li</i> Tolibov Mahmudjon MILLIY URF-ODAT VA AN'ANALARNING O'QUVCHILAR MA'NAVIY -AXLOQIY TARBIVASIDAGI AHAMIYATI.....	147
<i>Jumayeva Dilfaza G'aniyevna</i> PEDAGOGIK ADOLAT VA PEDAGOGIK MADANIYATNING TA'LIM SIFATIGA TA'SIRI.....	150
<i>O'inasova Nafisabonu Umarovna</i> Ilmiy rahbar: Tardiyeva Mohira Juraqulovna O'QUVCHILARDA IJTIMOIY ADOLAT TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	152
<i>Hamroyev Sidiqjon Simoyevich</i> O'ZBEK POLKLORIDA SHART - SINOV MOTIVLARINING GENEZISI VA SVUJETI.....	154
<i>Sharipova Maxbaba Baxshilloevna</i> Baxshilloevna Sabina Dilshod qizi MADANIY MARKAZLAR - XAVFISIZLIK VA BARQARORLIK ASOSI.....	156
<i>Sotvoldiyev Jazongir Sultonali o'g'li</i> BOBORAHIM MASHRAB LJODIDA OTA-ONA MAVZUSI.....	159